Smith, M. K. (2003) o'zining "Issues in Cultural Tourism Studies" asarida hududiy turizmni baholashda ko'p mezonli (multi-criteria) yondashuvning ahamiyatini ta'kidlab, bunda madaniy meros, infratuzilma va xizmat sifati kabi omillarni alohida tahlil qilishni taklif etadi.

Gunn, C. A. & Var, T. (2002) "Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases" nomli kitobida hududiy resurslar va xizmatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi, bunda transport, joylashtirish vositalari va obektlarning mavjudligi turizm oqimiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'riladi.

Jansen-Verbeke, M. (1986) tomonidan ishlab chiqilgan modelda shaharlar va hududlar turizmga jozibadorlik darajasi bo'yicha baholangan, bunda asosiy e'tibor obektlarning soni emas, balki ularning sifati va ularni aks ettiruvchi xizmat tarmog'iga qaratiladi.

Buhalis, D. (2000) o'zining "Marketing the Competitive Destination of the Future" maqolasida raqobatbardosh turistik hududlarni aniqlashda indikatorlar asosida reytinglash tizimining zarurligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy turizm salohiyatini baholashda indekslash va vaznli ko'rsatkichlar tizimi eng maqbul va obyektiv metodlardan biridir. Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar asosida hududlarning nisbiy ustunliklarini aniqlash, turizm strategiyasini belgilash hamda marketing choralarini ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizmga vazn indeksi (Weight Index — WI) orqali baholash — bu turli hududlarning yoki obektlarning turizm salohiyatini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish usullaridan biridir. Bu uslub hududlar o'rtasidagi taqqoslashni aniqroq qilish, ustuvorliklarni belgilash va resurslarni oqilona taqsimlash uchun ishlatiladi. Vazn indeksi — bu ko'rsatkichlarning nisbiy ahamiyatini (og'irligini) hisobga olib, umumiy baholovchi indeksni aniqlash metodikasi. Har bir indikatorga uning muhimligiga qarab vazn (og'irlik koeffitsienti) belgilanadi va bu qiymatlar asosida hudud yoki obyektning umumiy bahosi aniqlanadi.

Ko'rsatkichlarni tanlash (indikatorlar):

Masalan:

- Turistlar soni
- Mehmonxonalar soni
- Turistik obidalar soni
- Yo'llarning sifati
- Hududga kirish imkoniyati
- Xavfsizlik darajasi
- Servis sifati

Har bir indikatorni 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqqa keltiriladi (normallashtiriladi):

$$\chi'_i = \frac{\chi_i - \min(\chi)}{\max(\chi) - \min(\chi)}$$

Vaznlar ekspertlar bahosi yoki statistik metodlar orqali belgilanadi. Masalan, turistlar soni uchun 0.30, servis sifati uchun 0.25, xavfsizlik uchun 0.15 va h.k.

Har bir hudud uchun quyidagi formula asosida umumiy indeks aniqlanadi:

$$WI = \sum_{i=1}^n \omega_i \cdot \chi'_i$$

$\omega_i$  - i-indikatorning og'irligi  $\chi_i$

$\chi'_i$  - i-indikatorning normallashtirilgan qiymati, ustivorlik bali (vazni)

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy salohiyatni taqqoslashda indekslash yondashuvi qo'llanildi. Bunda har bir ko'rsatkich uchun og'irlik koeffitsienti aniqlanib, integral baholash indeksi shakllantirildi. Baholash natijalari asosida yuqori salohiyatli hududlar aniqlandi. Toshkent shahri va Samarqand viloyati mehmonxonalar soni va xizmatlar sifati bo'yicha yetakchi o'rinlarda turibdi.

O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Mamlakat bo'yicha jami 1,098 ta mehmonxona faoliyat yuritib, ular 48,330 ta joy (o'rin) bilan sayyohlarga



xizmat ko'rsatmoqda. Bu raqamlar turizmning asosiy logistika va yashash infratuzilmasi jadal kengayotganini ko'rsatadi.

Sayyohlik uchun jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri bu – madaniy meros va tarixiy obektlar soni hisoblanadi. Respublikada 2,060 ta sayyohlik obekti mavjud bo'lib, ularning 865 tasi madaniy meros obyektlari sifatida e'tirof etilgan. Bu holat O'zbekistonning qadimiy tarix va boy madaniyatga ega ekani bilan bog'liq bo'lib, xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish sur'atlari tahlil qilinganda, bu jarayonning hududlar kesimida nomutanosib kechayotganini kuzatish mumkin. Infratuzilma elementlari tarkibida mehmonxona soni va o'rinlari (har biri 20% vazn), sayyohlik obektlari (25%), madaniy meros obyektlari (15%), turizm qishloqlari, xostellar, mehmon uylari va turoperatorlar (har biri 5%) kabi ko'rsatkichlar asosiy baholash mezonlari sifatida tanlangan. Bu mezonlar asosida hisoblangan Vaznli Indekslar hududlar bo'yicha rivojlanishdagi asosiy ustuvorlik va kamchiliklarni ochib beradi.

Avvalo, Buxoro va Xiva shaharlari yuqori tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan markazlar sifatida ajralib turadi. Ushbu shaharlar nafaqat madaniy meros obektlari soni, balki xalqaro miqyosda tan olingan turistik brendlari bilan ham alohida e'tiborga loyiq. Buxoro viloyatidagi 139 ta madaniy meros obekti va Xorazmdagi 129 ta obyekt bu hududlarning turizm salohiyatini belgilovchi muhim omillardandir.

Shuningdek, Namangan, Navoiy va Toshkent viloyatlarida turizm qishloqlarining shakllanishi ekologik, etnografik va hunarmandchilik yo'nalishlari asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa mintaqaviy turizmni diversifikatsiya qilish va ichki turizmni rag'batlantirishda ijobiy omil hisoblanadi. Biroq, ko'pgina hududlarda raqamli xizmatlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi sayyohlar uchun qulayliklarning kamayishiga, natijada esa raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelmoqda. Masalan, onlayn bron qilish, raqamli xaritalar va virtual gidlar xizmatining ayrim viloyatlarda mavjud emasligi zamonaviy talablar bilan zid keladi.

Umuman olganda, Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari Vaznli Indeks bo'yicha yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Sirdaryo, Navoiy, Qoraqalpog'iston va Andijon viloyatlari infratuzilmaning barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha past ulushga ega. Bu esa hududiy turizm siyosatini differensial yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, zaif infratuzilmaga ega mintaqalarda mahalliy budjet, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro loyihalar yordamida turizmni rag'batlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasi: mehmonxonalar, obektlar va tashkilotlar soni bo'yicha ma'lumotlarni jamlangan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasi: mehmonxonalar, obektlar va tashkilotlar soni bo'yicha taqsimlanishi<sup>3</sup>

№	Hudud nomi	Mehmonxona soni	Mehmonxona o'rinlari soni	Sayyohlar tashrif buyuradigan obektlari soni	Sayyohlar tashrif buyuradigan madaniy meros obektlari soni	Turizm qishloq va mahallalari soni	Xostel soni	Mehmon uyi soni	Turoperator soni
	O'zbekiston Respublikasi	1,098	48,330	2,060	865	19	918	3,752	2,650
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	27	631	109	51	0	28	51	67
2	Andijon viloyati	24	901	68	39	1	26	105	58
3	Buxoro viloyati	208	4,600	253	139	2	84	296	176
4	Jizzax viloyati	28	559	156	89	1	29	181	29
5	Qashqadaryo viloyati	43	1,153	108	47	1	51	262	30
6	Navoiy viloyati	29	999	55	15	2	41	122	68
7	Namangan viloyati	19	727	110	43	2	24	614	115
8	Samarqand viloyati	156	5,396	136	43	3	124	424	316

3 Turizm qo'rmatasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. (2025 yil 1 yanvar holati)



9	Surxondaryo viloyati	48	1,266	158	74	3	23	144	51
10	Sirdaryo viloyati	12	219	91	16	0	24	22	21
11	Toshkent viloyati	41	1,253	150	30	4	95	955	93
12	Farg'ona viloyati	45	1,365	163	53	0	38	264	124
13	Xorazm viloyati	66	2,017	285	129	0	23	126	92
14	Toshkent shahar	352	27,244	218	97	0	308	186	1,410
	Ustivorlik bali	20	20	25	15	5	5	5	5

Turizmning arzon va oilaviy shakllariga bo'lgan talab ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatda 918 ta xostel va 3,752 ta mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkichlar sayyohlar uchun turli toifadagi xizmatlar ko'rsatilayotganini anglatadi.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirda faqat 19 ta turizm qishloqlari va mahallalari ro'yxatga olingan bo'lib, bu borada hali katta salohiyat mavjud. Mahalliy hamjamiyatlar asosida barpo etiladigan turizm obyektlari nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy almashinuv va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

#### 2-jadval. Vazn indeksi Toshkent shahri uchun hisoblash<sup>4</sup>

Ko'rsatkich	Qiymat	Umumiy	Vazn	Hisoblanishi
Mehmonxona soni	352	1,098	20	$(352/1098) \times 20 = 6.41$
Mehmonxona o'rinlari	27,244	48,330	20	$(27,244/48,330) \times 20 = 11.27$
Ob'ektlar soni	218	2,060	25	$(218/2060) \times 25 = 2.64$
Madaniy meros ob'ektlari	97	865	15	$(97/865) \times 15 = 1.68$
Turizm qishloq va mahallalari	0	19	5	$(0/19) \times 5 = 0$
Xostellar soni	308	918	5	$(308/918) \times 5 = 1.68$
Mehmon uylari soni	186	3,752	5	$(186/3752) \times 5 = 0.25$
Turoperatorlar soni	1,410	2,650	5	$(1410/2650) \times 5 = 2.66$

Vazn indeksi WI hisoblash:

$$WI_{Toshkent\ sh.} = (6.41 + 11.27 + 2.64 + 1.68 + 0 + 1.68 + 0.25 + 2.66) \times 100 = 26,59\%$$

O'zbekiston hududlarining turizm infratuzilmasi salohiyatini aniqlashda Vaznli Indeks (WI%) yondashuvi zamonaviy baholash metodikasi sifatida qo'llanilib, har bir indikatorning nisbiy ahamiyati (vazni) asosida integral ko'rsatkich shakllantiriladi. Toshkent shahri misolida olib borilgan hisob-kitoblar, mazkur metodikaning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Hisoblash jarayonida mehmonxonalar soni (352 ta), mehmonxona o'rinlari (27,244 ta), sayyohlik obektlari (218 ta), madaniy meros obektlari (97 ta), xostellar (308 ta), mehmon uylari (186 ta) va turoperatorlar soni (1,410 ta) kabi ko'rsatkichlar alohida o'rganilib, ularning mamlakat bo'yicha umumiy soniga nisbati vazn koeffitsienti (20, 25, 15 va h.k.) orqali ko'paytirildi. Misol uchun, mehmonxona o'rinlari bo'yicha ulush  $(27,244/48,330) \times 20 = 11.27$ , xostellar bo'yicha  $(308/918) \times 5 = 1.68$ , turoperatorlar soni  $(1410/2650) \times 5 = 2.66$  ni tashkil etdi. Turizm qishloqlari soni 0 bo'lganligi sababli bu indikator Toshkent shahri uchun WI hisobida nolga teng bo'ldi.

Yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar yig'indisi asosida Toshkent shahri Vaznli Indeks (WI) qiymati 26.59% deb belgilandi. Bu esa ushbu hududning mamlakatdagi umumiy turizm infratuzilmasida yetakchi o'ringa ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu natija poytaxtning iqtisodiy, transport va xizmatlar infratuzilmasi jihatidan ustunlik

4 Muallif ishlanmasi



qilishi bilan izohlanadi. Xususan, raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi, xizmatlar sifati va xalqaro transport aloqalarining mavjudligi Toshkent shahrining turizm salohiyatini kuchaytiruvchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, WI ko'rsatkichining yuqoriligi faqat kvantitativ (son jihatidan) ko'rsatkichlar bilan emas, balki ularning xizmat ko'rsatish sifati, boshqaruv tizimi va diversifikatsiyalangan infratuzilmasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Toshkent shahri Vaznli Indeks yondashuvida boshqa hududlar uchun ham namunaviy model sifatida qaralishi mumkin.

Shu asosda qolgan hududlar ham shu ketma ketlikda hisob kitob amalga oshiriladi. O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini tizimli baholashda Vaznli Indeks (WI%) yondashuvi asosiy metod sifatida qo'llanildi. Bu yondashuvda barcha hududlar uchun bir xil ko'rsatkichlar — mehmonxonalar soni, ularning o'rin sig'imi, sayyohlik obyektlari va madaniy meros yodgorliklari, turizm qishloqlari, xostellar, mehmon uylari hamda turoperatorlar soni — tanlab olinib, har bir indikator uchun ularning nisbiy ulushi va vazni (ustuvorlik bali) asosida integral baholash amalga oshirildi. Har bir indikator uchun belgilangan ustuvorlik (masalan, mehmonxonalar va ularning o'rinlari — 20%, sayyohlik obyektlari — 25%, madaniy meros obyektlari — 15% va hokazo) umumiy hisobda 100 foizlik ko'rsatkichni tashkil etdi.

Hisoblash metodikasi Toshkent shahri misolida qo'llanilgan formulaga tayanadi, ya'ni har bir ko'rsatkichning hududiy qiymati mamlakat bo'yicha umumiy qiymatga nisbatan aniqlanib, u tegishli vazn bilan ko'paytiriladi. Shu tarzda har bir hudud uchun alohida WI qiymati hisoblanib, ularning mamlakat turizm infratuzilmasidagi ulushi foiz ko'rinishida aks ettirildi. Masalan, Toshkent shahri uchun bu ko'rsatkich 26,59%, Buxoro viloyati uchun 12,88%, Samarqand viloyati uchun 10,09%, eng past natijani esa Sirdaryo viloyati (1,89%) qayd etdi.

Mazkur hisob-kitoblar asosida aniqlanishicha, WI qiymatlarining farqli chiqishi hududlardagi turizm resurslarining miqdoriy salohiyati va infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Metodikaning afzalligi shundaki, u hududiy nomutanosibliklarni aniqlash, strategik rejalashtirishga asos bo'lish, shuningdek, turizm infratuzilmasining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, WI yondashuvi orqali turizm salohiyati nafaqat statistik ma'lumotlar, balki kompleks baholash tizimi orqali ilmiy asosda tavsiflanmoqda.

O'zbekiston hududlarining turizm infratuzilmasi bo'yicha 8 ta ko'rsatkich asosida hisoblangan Vaznli Indeks (WI%) natijalari (3-jadval):


3-jadval. O'zbekiston hududlarining turizm infratuzilmasi bo'yicha 8 ta ko'rsatkich asosida hisoblangan Vaznli Indeks (WI%)<sup>5</sup>

№	Hudud nomi	WI (%)
1	Toshkent shahar	26,59
2	Buxoro viloyati	12,88
3	Samarqand viloyati	10,09
4	Xorazm viloyati	8,19
5	Toshkent viloyati	6,62
6	Surxondaryo viloyati	5,80
7	Farg'ona viloyati	5,07
8	Jizzax viloyati	4,89
9	Namangan viloyati	4,41
10	Qashqadaryo viloyati	4,33
11	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,30
12	Andijon viloyati	2,96
13	Navoiy viloyati	2,90
14	Sirdaryo viloyati	1,89

5 Muallif ishlanmasi



O'rganilgan ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, Eng katta ulush Toshkent shahriga (26.59 %) tegishli, undan keyin Buxoro (12.88%) va Samarqand (10.09%) joylashgan. Eng past ko'rsatkich Sirdaryoga (1.89%) tegishli.



1-rasm. Hududlar bo'yicha Vaznli Indeksning O'zbekiston umumiy ko'rsatkichiga nisbatan ulushi<sup>6</sup>

Tahlil qilingan ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi bo'yicha tuzilgan Vaznli Indeks (WI%) tahlili natijalari hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Grafik ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahri 26,59% ulush bilan mamlakatdagi turizm infratuzilmasining markaziy yadrosi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich poytaxtning iqtisodiy, transport va xizmat ko'rsatish sohasidagi ustunliklari bilan izohlanadi. Undan keyingi o'rinlarni Buxoro viloyati (12,88%), Samarqand viloyati (10,09%) va Xorazm viloyati (8,19%) egallab, ular boy tarixiy-madaniy merosi, jahon miqyosida tan olingan sayyohlik markazlari va rivojlangan mehmonxona tarmog'i bilan ajralib turadi.

Mazkur viloyatlarning yuqori ulushga ega bo'lishi ularning xalqaro va ichki turizm oqimi uchun asosiy manzillardan biri bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi. Biroq, Sirdaryo viloyatining atigi 1,89% ko'rsatkich bilan eng past ulushga ega ekani mintaqaviy nomutanosibliklar mavjudligini aniq ko'rsatadi. Bu holat turizm infratuzilmasini hududiy jihatdan muvozanatlashtirish, kamroq rivojlangan viloyatlarda investitsion muhitni yaxshilash va yangi turizm tarmoqlarini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Umuman olganda, tahlil turizm infratuzilmasining O'zbekiston bo'yicha notekis taqsimlanganligini, yetakchi hududlar bilan ortda qolayotgan mintaqalar o'rtasida jiddiy tafovutlar borligini yaqqol namoyon etmoqda. Bu esa davlat siyosati va strategik rejalashtirishda hududiy tenglik tamoyiliga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi sezilarli tafovutlarga ega bo'lib, bu holat mintaqaviy turizm siyosatini shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Eng avvalo, mehmonxona va ularning o'rinlari soni bo'yicha Toshkent shahri yetakchi hisoblanadi. Bu yerda joylashgan 352 ta mehmonxona umumiy 27,244 ta o'rin bilan mamlakatdagi barcha joylarning deyarli 48 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich poytaxtning mamlakatdagi eng muhim iqtisodiy, siyosiy va turistik markaz sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, Buxoro (208 mehmonxona, 4,600 o'rin), Samarqand (156 mehmonxona, 5,396 o'rin) va Xorazm (66 mehmonxona, 2,017 o'rin) viloyatlari ham sayyohlar uchun yetarli darajada infratuzilmaga ega bo'lgan hududlardir. Aksincha, Sirdaryo (12 mehmonxona) va Namangan (19 mehmonxona) viloyatlarida turizm infratuzilmasining zaifligi ko'zga tashlanadi.

Sayyohlik obektlari va madaniy meros yodgorliklari soni jihatidan esa Xorazm viloyati yetakchilik qiladi — bu yerda 285 ta sayyohlik obyekti mavjud bo'lib, ulardan 129 tasi madaniy meros obyektlari hisoblanadi. Undan keyin Buxoro (253/139) va Toshkent shahri (218/97) joylashadi, bu hududlarning boy tarixiy va madaniy merosi ularni yirik turizm markazlariga aylantirgan. Bunga qarshi ravishda, Navoiy (55/15) va Andijon (68/39) viloyatlarida bu ko'rsatkichlar ancha past bo'lib, bu mintaqalarning tarixiy-tarifiy jozibadorligi nisbatan cheklanganligini bildiradi.

6 Muallif ishlanmasi



Turizm qishloqlari va mahallalari soni mamlakat bo'yicha juda past bo'lib, ular asosan Samarqand (3), Surxondaryo (3) va Toshkent viloyati (4) kabi ayrim hududlarga to'liq qayd etilgan. Aksariyat viloyatlarda bu ko'rsatkich 0 yoki 1 atrofida bo'lib, bu esa agroturizm va etnoturizm yo'nalishlarining hali yetarlicha rivojlanmaganini anglatadi. Mahalliy qishloq turizmi imkoniyatlarining zaifligi qishloq hududlarining turizm tizimiga to'liq jalb qilinmayotganidan dalolat beradi.

Vaznli Indeks (WI%) ma'lumotlari asosida tuzilgan yangi grafik: u har bir hududning O'zbekiston turizm infratuzilmasidagi foiz ulushini ko'rsatadi. Eng yuqori ulushga ega hudud — Toshkent shahri (26,59%), undan keyin Buxoro va Samarqand viloyatlari joy olgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, turizm infratuzilmasining asosiy qismi bir nechta yirik hududlarda to'plangan.

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, xostel va mehmon uylari soni bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Toshkent viloyati (955) va Namangan (614) mehmon uylari soni bo'yicha yuqori o'rinda turib, bu hududlarda kichik biznes va oilaviy turar joy tarmog'i rivojlanganligini ko'rsatadi. Toshkent shahri esa xostellar soni bo'yicha (308 dona) yetakchilik qiladi, bu esa yoshlar va byudjetli sayohatchilar uchun qulay infratuzilmaning mavjudligini bildiradi. Biroq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida bu turdagi turar joylar sonining pastligi, bu hududlarda arzon va alternativ turizm shakllari hali to'liq shakllanmaganidan darak beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasining Vaznli Indeks (WI%) asosida o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, respublika bo'yicha mavjud salohiyatdan foydalanish darajasi hududlar kesimida keskin farqlanadi. Toshkent shahri 26,59% bilan yetakchilik qilgan bo'lsa, Buxoro, Samarqand va Xorazm kabi tarixiy shaharlarda ham turizmning asosiy infratuzilma tarmoqlari ancha yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga, Sirdaryo, Qoraqalpog'iston, Andijon va Navoiy viloyatlarida ko'rsatkichlarning pastligi ushbu hududlarda turizmni rivojlantirish bo'yicha aniq strategik choralarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hududlar infratuzilmasini baholashda faqat mehmonxona va obektlar soni emas, balki madaniy meros, turizm qishloqlari, xostellar, mehmon uylari va turoperatorlar soni kabi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turizmning ekologik, qishloq va arzon shakllariga bo'lgan talab ortib borayotgan bir paytda, bu yo'nalishdagi salohiyat yetarli darajada ishga solinmayotgani aniqlandi. Mahalliy brendlar, hunarmandchilik asosida rivojlanayotgan turizm qishloqlarining soni cheklangan, raqamli xizmatlar esa aksariyat viloyatlarda yetarli darajada joriy etilmagan.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Hududiy differensial yondashuv asosida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, ya'ni infratuzilmasi zaif hududlarda davlat-xususiy sheriklik, subsidiya va xalqaro grantlar asosida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish;

Turizm raqamlashtirish darajasini oshirish: barcha turizm obektlarini yagona onlayn axborot platformasiga integratsiyalash, raqamli bron qilish va interaktiv xaritalarni joriy etish;

Mahalliy brendlar va identitetni shakllantirish orqali hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish — masalan, Xorazmning madaniy gastronomiyasi yoki Buxoroning qadimiy hunarmandchiligi asosida;

Kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion ta'lim: turizm yo'nalishida mutaxassislar tayyorlashda amaliy ko'nikmalar, raqamli marketing, til bilimi va xizmat sifati bo'yicha maxsus dasturlarni joriy qilish;

Agroturizm va etnoturizm imkoniyatlarini kengaytirish: turizm qishloqlari sonini oshirish, ularga infratuzilma olib borish, mahalliy aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish.

Ushbu takliflar O'zbekiston hududlarida mavjud turizm salohiyatini yanada samarali ishga solish, ichki va tashqi turizm oqimini diversifikatsiya qilish hamda milliy iqtisodiyotda xizmatlar sektorining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvinu takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. PF-75-son, 2022-yil 18-fevral. — [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-6165-son, 2021-yil 9-fevral. — [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Buhalis, D. (2000). Marketing the Competitive Destination of the Future. *Tourism Management*, Vol. 21(1), pp. 97–116.
4. Smith, M. K. (2003). *Issues in Cultural Tourism Studies*. London: Routledge.
5. Gunn, C. A., & Var, T. (2002). *Tourism Planning: Basics, Concepts, Cases*. 4th ed. New York: Taylor & Francis.
6. Ritchie, J. B., & Crouch, G. I. (2011). A Model of Destination Competitiveness and Sustainability. In: Wang, Y., Pizam, A. (eds.) *Tourism Destination Marketing and Management: Theories and Applications*. Oxfordshire: CABI Publishing, pp. 326–339.
7. Amonboyev, M., Sayfutdinov, Sh., & Nurfayzieva, M. (2021). *Fundamentals of Tourism*. Darslik. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.



8. Aliyeva, M. (2022). Turizm asoslari. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 400 b.
9. Karimova, S. (2023). Samarqand viloyatida agro-turizm salohiyatini baholash va takomillashtirish yo'llari. Toshkent: TDIU.
10. Hismatova, M. A. (2022). Agroturizm va ekoturizmni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. Iqtisodiy tahlil ilmiy jurnali, №3, B. 45–50.
11. Rastegar, H. (2021). Ecotourism for Community Development: A Model for Sustainable Growth. Journal of Tourism Planning and Development, Vol. 18(1), pp. 12–25.
12. Sayyora R. et al. (2020). Organizational and Economic Aspects of the Development of the International Tourism and Hospitality Industry. Journal of Environmental Management and Tourism, 11(4), pp. 913–919.
13. Juraeva, N., Nurfayzieva, M., Bakhromov, A., & Oppokhonov, N. (2023). Exploring the Potential of Rural Tourism Development: A Case Study of Ovjazsoy in the Tashkent Region, Uzbekistan. European Journal of Business Startups and Open Society, 3(5), pp. 171–176.
14. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2022). Trends in Ecotourism and Sustainability. London: WTTC Publications. – [www.wttc.org](http://www.wttc.org)
15. UNWTO (2023). Tourism and Rural Development: Unlocking the Potential of Territories. Madrid: UN Tourism Publications.
16. FAO (2021). Agrotourism and Rural Livelihoods in Central Asia: A Policy Review. Rome: FAO Publishing.
17. Klaus Schwab, Saadia Zahidi. (2020). The Global Competitiveness Report: Special Edition on the Road to Recovery. World Economic Forum.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---